



PAPER

## G'ARB VA SHARQ TILSHUNOSLIGIDA KONSEPT TUSHUNCHASI BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

Akbarova Ruxsorxon Farxodjon qizi<sup>1,\*</sup> and Mirpo'latova Soliha Maqsud qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Qo'qon davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi

<sup>2</sup>Qo'qon davlat universiteti ikkinchi kurs talabasi

\*mokhinurlazizbekovna@gmail.com

### Abstract

Konsept masalasi bugungi tilshunoslikning eng faol, dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Bu tushuncha o'z tabiatiga ko'ra nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, ketadi. Shu bois konseptning talqini va uning ilmiy izohi g'arb va sharq ilmiy an'analariida biroz farq qiladi, biroq ularni birlashtiruvchi umumiy jihatlar ham mavjud.

**Key words:** konsept, g'arb tilshunosligi, sharq tilshunosligi, tafakkur, psixologiya, lingvistik tuzilma

### Kirish

Konsept fenomeni zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi markaziy kategoriya sifatida talqin qilinib, uning nazariy asoslari qator yetuk olimlarning ilmiy merosida shakllangan. V.fon Gumboldtning tilni "xalq ruhining aksi" sifatidagi qarashlari konseptning milliy-madaniy tabiati haqidagi hozirgi yondashuvlar uchun poydevor bo'ldi. Kognitiv tilshunoslik asoschilari R.Langaker va J.Lakoff konseptual tuzilma va konseptual metafora orqali insonning fikrlashi va

lingvistik tuzilmalarning o'zaro ta'sirini izohlab, konseptni kognitiv modelning markaziy bo'g'ini sifatida talqin etdi.

E.Kubryakova va N.Arutyunovanning ishlari esa konseptning mental tabiatini, uning semantik tizim va individ ongida tutgan o'rnini aniqlab, konseptni "bilishning elementar birliklari" sifatida ta'rifladi. V.Karasik, Yu.Stepanov, V.Maslova hamda I.Sternin tomonidan ishlab chiqilgan lingvokulturologik yondashuvda konsept milliy madaniyatni aks ettiruvchi madaniy-kognitiv birlik sifatida o'rganilib, konseptosfera yo'nishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. A.Potebnya va

Compiled on: March 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Yu. Apresyan esa konseptni ma'no, milliy tafakkur va "naiv dunyo manzarasi" bilan bog'liq holda sharhlab, uning semantik qatlamlari hamda madaniy asoslarini asoslab berdilar.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

O'zbek tilshunosligida Sh. Safarov konseptning nazariy asoslarini tizimli yondashuvda ishlab chiqib, o'zbek konseptosferasining lingvokognitiv modelini yaratdi. D. Ashurova, A. Abduazizov, M. Galieva va M. Rasulova tadqiqotlari orqali esa konseptning bahoviy, estetik va semantik xususiyatlari o'zbek tilining milliy-dunyoqarash asosidagi konseptual tizimda chuqur tahlilga tortilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida konseptning universal va milliy-madaniy mohiyatga ega murakkab mental kategoriya sifatidagi talqini mustahkam nazariy asosga ega bo'ldi. Sharq ilmiy an'anasida konsept ko'proq til – madaniyat – milliy mentalitet uchligida o'rganiladi. Bu yondashuv insonning ma'naviy qadriyatlarini, tarixiy xotira, ijtimoiy ongi va an'analari bilan chambarchas bog'liq.

Sh. Safarov o'zbek kognitiv tilshunosligining yetakchi namoyandalardan biri sifatida konseptni madaniyatning til orqali ifodalangan eng muhim birliklaridan biri sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, konsept xalqning madaniy tajribasi, urf-odat va dunyoni ko'rish tarzining ilmiy modelidir. N. Mahmudov konseptni milliy tafakkur mahsuli sifatida ko'radi va uni semantik tahlil, mental modellar, tarixiy-lisoniy tajriba orqali ochib beradi. A. Nurmonov, A. Madvaliyev, G. Abdurahmonova, X. Ne'matov, R. Sayfullayeva, D. Xudoyberganova kabi olimlar esa konseptni til birliklari tarkibidagi ma'no qatlamlari, milliy xususiyatlar, qadriyatlar tizimi bilan bog'lab tadqiq etganlar.

Qahramonlik konsepti o'zbek tilshunosligida lingvokulturologik va lingvokognitiv yo'nalishlarda bir qator olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, D. U. Ashurova ingliz va o'zbek madaniyatlarida konseptlarning kognitiv mazmunini tahlil qilib, diskursiy yondashuvlarni rivojlantirdi. Sh. S. Safarov esa konseptni mental model sifatida o'rganib, kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini shakllantirdi. A. A. Abduazizov va M. Galieva til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni, milliy konseptlarning

lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishdi. D. Xudoyberganova badiiy matnda ramziy ma'nolar va ularning kognitiv asoslarini tadqiq qildi. Qahramonlik va jasorat konseptlari semantik jihatdan N. M. Djusupov tomonidan chuqur o'rganildi, O'. Q. Yusupov esa badiiy diskursda qahramonlik timsollarini tahlil qildi. Shu bilan birga, M. M. Raxmatova, N. Z. Normurodova va T. Mardiev milliy qadriyatlarini konseptual jihatdan izohlab, badiiy nutqda qahramonlikning madaniy, semantik va ramziy ko'rinishlarini yoritishga katta hissa qo'shdilar.

Sharq yondashuvi G'arbnikidan farqli o'laroq: konseptni milliy madaniyat mahsuli sifatida, tarixiy xotira bilan bog'liq semantik birlik sifatida, tilning ichki ma'naviy qatlamlarini aks ettiruvchi model sifatida ko'radi. Konsept tushunchasi G'arbda asosan ong, idrok va kognitiv jarayonlar bilan bog'liq ilmiy model sifatida shakllangan bo'lsa, Sharqda u milliy madaniyat, ma'naviy qadriyatlar va tarixiy tajriba bilan bog'liq tushuncha sifatida qaraladi. Har ikkala yondashuv konseptni murakkab, ko'p qirrali, lingvokulturologik ahamiyatga ega birlik sifatida e'tirof etadi. Bu qarashlar nafaqat tilning semantik tuzilishini, balki xalqning dunyoqarashini, fikrlash uslubini va madaniyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

№	Olim	Asosiy manba	Konsept haqidagi asosiy fikr
1	Yuri Stepanov	Константы. Словарь русской культуры	Konsept – madaniyatning inson ongidagi tayanch mental birligi
2	Vladimir Karasik	Языковой круг: личность, концепты, дискурс	Konsept til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanadi
3	George Lakoff	Metaphors We Live By	Konseptlar inson tajribasi asosida metaforalar orqali tuziladi
4	Ronald Langacker	Foundations of Cognitive Grammar (1-jild)	Konsept – ma'noning kognitiv modeli, til esa uning ifodasidir
5	Anna Wierzbicka	Understanding Cultures through Their Key Words	Konsept milliy madaniyatni aks ettiruvchi "kalit so'z"dir
6	Leo Weisgerber	Vom Weltbild der deutschen Sprache	Til konseptlar orqali milliy dunyo manzarasini shakllantiradi
7	Émile Benveniste	Problèmes de linguistique générale	Konsept ijtimoiy tajribaning til orqali ifodalangan shaklidir
8	Teun van Dijk	Discourse and Knowledge	Konsept ijtimoiy bilim va diskurs bilan bog'liq kognitiv tuzilma
9	Francisco Ruiz de Mendoza	Cognitive Linguistics (maqolalar to'plami)	Konsept kognitiv modellar integratsiyasi natijasidir
10	Jerzy Bartmiński	Aspects of Cognitive Ethnolinguistics	Konsept – xalq tafakkuridagi madaniy stereotipning til shakli

Sharq tilshunosligida konsept tushunchasi asosan madaniy-ijtimoiy yondashuv asosida tadqiq qilinadi. Bu yondashuv konseptni til

orqali milliy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va axloqiy me'yorlarni ifodalovchi kognitiv birlik sifatida ko'radi. Xitoy olimi Li Shen konseptlarni konfutsiychilik falsafasi va ijtimoiy axloqiy qadriyatlar bilan bog'lab, ularni milliy madaniyatning asosiy birliklari deb hisoblaydi. Xitoy lingvokulturasida insonparvarlik, ijtimoiy me'yor va ota-onaga sadoqat kabi konseptlar jamiyatning axloqiy va ijtimoiy modelini belgilaydi.

## Natijalar va muhokama

Yaponiya konseptologiyasida esa ijtimoiy majburiyat va hurmat tizimi muhim rol o'ynaydi. Takeo Doi ijtimoiy burch va minnatdorlik konseptlarini yapon jamiyatida shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini boshqaruvchi asosiy tushunchalar sifatida tadqiq qilgan. Shu bilan birga, Haruhiko Kindaichi konseptlarni nutq etiketi va keigo orqali ifodalanadigan ijtimoiy-hurmat tizimi sifatida tahlil qiladi. Bu konseptlar yapon tilida va madaniyatida ijtimoiy uyg'unlikni saqlash va nizolardan qochishga qaratilgan amaliy rol o'ynaydi. Shuningdek, Hindiston va Eron tilshunoslari ham konseptlarni madaniy qadriyat va tarixiy-tarbiaviy tajriba bilan bog'laydi. R. K. Agrawal konseptlarni hind falsafasi va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi kognitiv birlik sifatida ko'rsatadi, Mohammad Ali Eslami esa konseptlarni fors tilida tarixiy, diniy va madaniy tafakkurni saqlaydigan birlik sifatida baholaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Sharq konseptologiyasi konseptni madaniy-ijtimoiy birlik sifatida, til orqali milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni ifodalash vositasi deb talqin qiladi. Shu tariqa, Sharq tilshunosligi konsept yondashuvini tadqiq etish milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi hamda lingvokulturologik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Malayziya va Indoneziya tilshunosligida konseptlar asosan ijtimoiy-mental yondashuv orqali tadqiq qilinadi. Abdullah bin Ahmad konseptlarni milliy mentalitet va til orqali shakllangan ijtimoiy kodlar sifatida baholaydi. Unga ko'ra, til konseptlari jamiyatning qadriyat tizimi va odatlarni avloddan-avlodga uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Sukardi (Indoneziya) konseptlarni jamiyat va shaxs

o'rtasidagi ijtimoiy uyg'unlikni ko'rsatadigan kognitiv birlik sifatida talqin qiladi.

Bu konseptlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini tartibga soladi, ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlaydi. Shu bilan, Malayziya va Indoneziya tilshunosligida konsept tushunchasi milliy mentalitet, ijtimoiy normativ va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi birlik sifatida ko'riladi va nutq hamda madaniyat orqali amaliy ifodaga ega bo'ladi.

№	Mamlakat	Olim	Asosiy manba	Konsept haqidagi asosiy fikr
1	Xitoy	Li Shen	<i>Chinese Conceptual System</i>	Konseptlar xitoy madaniyati va konfutsiychilik falsafasiga asoslangan, ijtimoiy va axloqiy normalarni aks ettiradi
2	Yaponiya	Takeo Doi	<i>The Anatomy of Dependence</i>	"Giri" va "On" konseptlari yapon jamiyatida shaxsning ijtimoiy majburiyatini belgilaydi
3	Janubiy Koreya	Moon Hyun	<i>Korean Cultural Concepts in Language</i>	Konseptlar til orqali milliy qadriyat va guruh uyg'unligini ifodalaydi
4	Hindiston	R. K. Agrawal	<i>Concepts in Indian Languages</i>	Konseptlar hind falsafasi va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi kognitiv birlikdir
5	Eron	Mohammad Ali Eslami	<i>Persian Conceptual System</i>	Konseptlar fors tilida tarixiy, diniy va madaniy tafakkurni saqlaydi
6	Turkiya	Ahmet Bican Ercilasun	<i>Turkish Cultural Concepts</i>	Konseptlar turk tilida xalq tafakkuri va tarixiy tajriba bilan bog'liq
7	Vyetnam	Nguyen Van Tien	<i>Vietnamese Cultural Concepts</i>	Konseptlar ijtimoiy etik va madaniy qadriyatlarni nutqda aks ettiradi
8	Malayziya	Abdullah bin Ahmad	<i>Malay Conceptual Framework</i>	Konseptlar milliy mentalitet va til orqali shakllangan ijtimoiy kodlardir
9	Indoneziya	Sukardi	<i>Bahasa and Cultural Concepts</i>	Konseptlar jamiyat va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy uyg'unlikni ko'rsatadi
10	Yaponiya	Haruhiko Kindaichi	<i>The Japanese Language</i>	Konseptlar nutq etiketlari va keigo orqali ijtimoiy-hurmat tizimini ifodalaydi

G'arb va Sharq tilshunosligida konsept tushunchasiga berilgan qarashlar bir-biridan farq qilsa-da, ularni bog'lab turuvchi umumiy jihatlar ham ko'p. Avvalo, har ikki ilmiy maktab konseptni inson ongida shakllanadigan, til orqali ifodalanadigan va madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ma'no birligi sifatida e'tirof etadi. Demak, konsept til, tafakkur va madaniyatning kesishgan nuqtasida joylashgani har ikki yondashuvda tan olinadi. Shu bilan birga, G'arb tadqiqotchilari konseptning ichki mexanizmlariga, ya'ni inson ongining qanday ishlashi, ma'no qanday tashkil topishi, kategoriyalash va metaforik fikrlash qanday sodir bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Ularning yondashuvida konsept – bu ongda mavjud bo'lgan bilimlar modeli, fikrlashning umumiy tartibi va kognitiv jarayonlarning mahsuli. Shuning uchun G'arb ilmiy maktabida konsept tushunchasi universallikka yaqinroq, madaniy farqlar esa

ikkinchi o'ringa tushadi.

### Xulosa

Sharq yondashuvi esa boshqacharoq. Bu maktabda konsept, avvalo, xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, mentaliteti va ma'naviy qadriyatlari bilan bog'langan ma'no qatlamidir. Sharq olimlari uchun konsept – bu nafaqat idrok mahsuli, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi, xalqning ruhiy olamidani darak beruvchi semantik birlikdir. Shu bois Sharq an'anasi konseptning emotsional, ma'naviy, aksialogik qirralariga ko'proq urg'u beradi. Umuman olganda, ikkala yondashuvni taqqoslar ekanmiz, G'arb konseptni shakllantiruvchi mexanizmlarni tushuntirishga intilsa, Sharq uni mazmunan to'ldiruvchi madaniy qatlamlarni ochishga harakat qiladi. Ammo shu ikki qarash bir-biriga raqib emas; aksincha, ular bir-birini boyitadi. Kognitiv mexanizmni Sharqning madaniy mazmuni bilan uyg'unlashtirganimizda, konsept nafaqat ilmiy tushuncha, balki xalq tafakkuri va dunyoqarashining chuqur aks-sadosi bo'lishi yaqqol namoyon bo'ladi.

### References

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. — Москва: Академия, 2001.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002.
3. Кубрякова Е.С. О концепте и концептосфере языка. — Москва: Наука, 1996.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
5. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. — Москва: Русские словари, 1997.
6. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1997.